



ARAB LINGVOMADANIYATIDA TABRIK IFODALASHDA QO'LLANADIGAN NUTQIY ETIKETLAR

Ilyosova Munisa Shuxrat qizi

O'zbekiston Xalqaro Islomshunoslik Akademiyasi 2-kurs magistranti

E-mail: bunnyovabunny@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20084395>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 04-may 2026 yil

Ma'qullandi: 06-may 2026 yil

Nashr qilindi: 08-may 2026 yil

KEYWORDS

Arab tilshunosligida tabriklash nutq akti va uning pragmatik xususiyatlari so'nggi yillarda alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmoqd.

ABSTRACT

Nutqiy etiket holatlari muayyan birliklarning mikrotizimi sifatida qaralib, ular, xususan, "tabriklar" va "tilaklar" orqali ijtimoiy o'zaro munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Mazkur etiket birliklari insonlar o'rtasidagi kommunikativ aloqalarni mustahkamlash, jamiyatdagi turli ijtimoiy rollar va maqomlarni namoyon etish vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, ular shaxslararo munosabatlarda hurmat, ijtimoiy tenglik yoki ijtimoiy tafovutlarning mavjudligini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy vosita sifatida namoyon bo'ladi. "Tabrik" va "tilak"lar xalq madaniyatining o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, unda milliy xususiyatlar yaqqol aks etadi.

Nutqiy etiket holatlari muayyan birliklarning mikrotizimi sifatida qaralib, ular, xususan, "tabriklar" va "tilaklar" orqali ijtimoiy o'zaro munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Mazkur etiket birliklari insonlar o'rtasidagi kommunikativ aloqalarni mustahkamlash, jamiyatdagi turli ijtimoiy rollar va maqomlarni namoyon etish vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, ular shaxslararo munosabatlarda hurmat, ijtimoiy tenglik yoki ijtimoiy tafovutlarning mavjudligini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy vosita sifatida namoyon bo'ladi. "Tabrik" va "tilak"lar xalq madaniyatining o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, unda milliy xususiyatlar yaqqol aks etadi. Ular xalq og'zaki ijodining tarkibiy qismi, insonning o'zini ifoda etish vositasi hamda avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ijtimoiy-madaniy merosning muhim elementi sifatida talqin etiladi. Shuningdek, "tabrik" va "tilak" konseptlari milliy mentalitet va o'ziga xoslikni mujassam etgan madaniy qadriyatlarning ifodasidir. Ular kundalik hayotning ajralmas qismi bo'lib, xalq turmush tarzida, xususan, milliy, diniy va shaxsiy bayramlarda keng namoyon bo'ladi. Bayramlar jamiyat hayotining muhim qismidir. Yangi bayramlarning paydo bo'lishi jamiyatda chuqur o'zgarishlar yuz berayotganidan dalolat beradi. Ushbu fakt bayramning jamiyatning ijtimoiy-madaniy paradigmasining shakllanishiga faol ta'sir ko'rsatadigan muhim madaniy hodisa ekanligini ko'rsatadi. Bayram jamiyatning o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini o'zi amalga oshirishga qaratilgan tarixiy harakat modelidir. Vdovinaning fikricha, "tabrik" konsepti quyidagi tushunchalarni o'z ichiga oladi: tabriklash, tilak bildirish, muvaffaqiyat, omad, bayram, tantanali tushlik/kechki ovqat, yoqimli/quvonchli tadbir, tabriklovchi, tabriknoma,

sovg'a, sovg'a taqdim etish, minnatdorchilik, tabrik so'zi, quvonch yoki hamdardlik ifodasi va boshqalar.¹

Arab tilshunosligida tabriklash nutq akti va uning pragmatik xususiyatlari so'nggi yillarda alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmoqda. Xususan, Yassir Shubul tomonidan olib borilgan tadqiqotda Iordaniya nutq hamjamiyatida tabriklash nutq aktining qo'llanishi tahlil qilingan.² Tadqiqotchilar ingliz tilini chet tili sifatida o'rganayotgan iordaniyalik magistratura talabalari nutqida qo'llaniladigan tabriklash strategiyalari hamda ularning ijobiy muloyimlik strategiyalaridan foydalanish darajasini aniqlashni maqsad qilganlar. Tadqiqot metodologiyasi sifatida Elwood tomonidan ishlab chiqilgan tabriklash strategiyalari tasnifi hamda Cambridge universiteti professor ustozlari Brown and Levinson 1987 yildagi nazariyasining moslashtirilgan modeli qo'llanilgan.³ Tadqiqot juda ham katta hajmdagi arab madaniyatidagi tabriklash nutqiy vaziyati va tabriklash nutqiy etiket birliklari foydalanish xususiyatlarini o'zida aks ettirdi. Shu nuqtai nazardan, boshqa bir tadqiqotda Falastindagi Herbon universiteti o'qituvchisi Al-Hur Falastin nutq muhitida tabriklash nutq akti va gender omili o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan. Tadqiqotda 60 nafar ishtirokchi jalb etilib, ular jinsga ko'ra teng taqsimlangan hamda to'rtta kommunikativ vaziyatni o'z ichiga olgan diskursni to'ldirish testi orqali tahlil qilingan.⁴ Arab xalqlarining tabriklash nutqiy etiketlari haqida so'z borar ekan bu lisoniy birliklar bevosita Islom dinining ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Tabriklash Islom paydo bo'lgan davrdan boshlab ma'lum bo'lgan ijtimoiy va diniy hodisalardan biridir. Muhammad (s.a.v) davrida ham bu amaliyot mavjud bo'lganligi rivoyatlarda qayd etiladi. Xususan, Ka'b ibn Malikning tavba voqeasida, u Tabuk jangi dan ortda qolganidan so'ng tavbasi qabul qilingach, unga: "Onang seni tug'gan kundan buyon eng yaxshi kuning muborak bo'lsin", deb xushxabar berilgan.⁵ Mazkur holat insonni quvontiradigan xushxabar yoki tabriklarga javob qaytarishning shar'iy jihatdan maqbulligiga dalil bo'la oladi. Shuningdek, bu holat og'irlik va tashvishdan xalos bo'lgan kishini tabriklashning joizligini ham ko'rsatadi. Bunday tabriklar diniy yoki dunyoviy ne'matlar bilan bog'liq bo'lishidan qat'i nazar, maqtovga loyiq hisoblanadi. Bu an'ana Muhammad (s.a.v) sahobalari tomonidan ham davom ettirilgan. Ular Ramazon hayiti yoki Qurbon hayiti kunlarida uchrashganlarida bir-birlariga: "Alloh sizdan ham, bizdan ham qabul qilsin", deb murojaat qilganlar. Vaqt o'tishi bilan tabriklash turli ijtimoiy vaziyatlarda keng tarqaldi. Ba'zi ulamolar uni insonlarga quvonch ulashish vositasi sifatida talqin qilganlar. Bu fikr Abu Hurayra rivoyat qilgan hadisda ham o'z aksini topgan bo'lib, unda eng afzal amallardan biri musulmon birodaringizni xursand qilish ekani ta'kidlanadi. Shu bois arablar Muhammad (s.a.v)ga ergashgan holda tabriklash an'analari rivojlantirganlar.⁶ Keyinchalik esa bu iboralar butun Islom olamida keng qo'llanila boshlagan. Arab tilida yozilgan tabrik iboralari insonning

¹ Вдовина Е.В. Поздравление и пожелание в речевом этикете: концептуальный и коммуникативный анализ. Диссер. ...канд. филол. наук. Москва, 2007.С.22.

² Y. Al-Shboul, I.F. Huwari. Congratulation strategies of Jordanian EFL postgraduate students. Indonesian J. Appl. Ling., 6 (1) (2016), pp. 79-87

³ <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2215039021000035#bib7>

⁴ dspace.hebron.edu

⁵ Ka'b bin Malik bin Al-Yaqin bin Ka'b Al-Ansari witnessed Al-Aqaba and left behind from Tabuk. For more, see Ibn Hajar Al-Asqalani: Abu Al-Fadl Ahmed bin Ali Muhammad bin Ahmed bin Hajarat 852 AH, the injury distinguishes the companions, edited by Adel Ahmed Abd Al-Mawjud and Ali Muhammad Moawad, Dar Al-Kutub Al-Ilmiya, Beirut, 1415 AD C 5 / p. 610

⁶ Al-Baydhani: Sadiq Muhammad Salih, Rulings of Congratulation in Islam, a Modern Social Jurisprudential Study, Ph.D. Thesis, D-year, p. 40 0(6) Al-Baydhani: Ibid., P. 50

yaqinlariga nisbatan bo'lgan o'ziga xos hissiy munosabatlarini ifodalaydi, ayniqsa muhim bayram va tantanali marosimlar munosabati bilan. Arab tilida eng sodda va eng keng tarqalgan tabrik so'zi مبروك (mabrūk) hisoblanadi. Bu so'z butun arab tilida so'zlashuvchi hududlarda umumiy tarzda tushuniladi va turli ijobiy holatlarda qo'llaniladi.

Tabriklayman! — ألف مبروك! iborasi deyarli barcha ijobiy voqealarda, masalan yangi telefon, yangi ish yoki boshqa yutuqlar munosabati bilan ishlatiladi. Do'stingiz yangi telefon olgan bo'lsa, oddiygina "مبروك" deb tabriklash mumkin.

Ming marta tabriklayman! — ألف مبروك!

Ushbu ibora esa "ming bor baraka" ma'nosini bildiruvchi yanada kuchli va hissiy tabrik shakli bo'lib, to'y yoki farzand tug'ilishi kabi muhim voqealarda qo'llaniladi.

Quyida turli ijtimoiy va madaniy vaziyatlar uchun mo'ljallangan arablarga xos va iste'molda keng foydalaniladigan tabrik iboralari jamlangan bo'lib, ular tug'ilgan kun, nikoh marosimlari, farzand dunyoga kelishi, Ramazon hayiti, Yangi yil hamda bolaning ilk qadamlari kabi muhim hodisalarni qamrab oladi.

1. Tug'ilgan kun munosabati bilan insonni tabriklash, unga nisbatan bo'lgan samimiy his-tuyg'ularni ifodalashning muhim nutqiy vositalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tabrikning arab tilida ifodalanishi ushbu marosimga o'ziga xos estetik va madaniy joziba bag'ishlaydi.

عيد ميلاد سعيد! – Tug'ilgan kuning muborak bo'lsin!

كل عام وأنت بخير وسعادة دائمة! – Har bir yil senga baxt va bardavom quvonch olib kelsin!

يوم ميلاد سعيد ومبارك! – Senga muborak va quvonchli tug'ilgan kun tilayman!⁷

2. Nikoh — inson hayotidagi muhim va unutilmas voqealardan biri bo'lib, u eng samimiy tilaklar va ezgu duolar bilan qutlanishga loyiqdir. Ushbu marosim munosabati bilan bildiriladigan tabriklar sevgi, totuvlik va o'zaro hurmat kabi qadriyatlarini ifoda etadi. Quyida yaqin insonlarning to'y marosimiga bag'ishlangan quvonchni ifodalovchi ayrim tabrik iboralari keltiriladi.

زواج مبارك! – Nikohingiz muborak bo'lsin!

بارك الله زواجكما وجعله مليئاً بالفرح والمودة! – Alloh nikohingizni muborak qilsin va uni quvonch hamda mehr-muhabbat bilan to'ldirsin!

أتمنى لكم حياة سعيدة ومستقبلاً زاهراً معاً! – Sizlarga baxtli hayot va birgalikda porloq kelajak tilayman!

زواج سعيد ودائماً كوناً دعماً لبعضكما البعض! – Baxtli nikoh tilayman! Har doim bir-biringizga tayanch bo'ling.⁸

بالرِّفاهِ وَالْبَيْنينِ! – Farovonlik va farzandlar tilayman!

بِالسَّعَادَةِ وَالْهَنَاءِ! – Baxt va farovonlik tilayman!

3. Yangi farzand dunyoga kelishi — inson hayotidagi eng quvonchli va muhim voqealardan biri bo'lib, u oila uchun ezgu tilaklar va baraka duolari bilan qutlanadi. Bunday tabriklar yangi hayot boshlanishini, oiladagi quvonch va umidlarning ortishini ifodalaydi.

مبروك وولادة الطفل! – Farzandingiz dunyoga kelgani muborak bo'lsin!

مبروك على الوافد الجديد! – Yangi mehmoningiz muborak bo'lsin!

نسأل الله أن يكون طفلكم سبباً في سعادتكم كل يوم! – Allohdan so'raymizki, farzandingiz har kuni sizga baxt olib kelsin!

⁷ <https://wedding.planning.how>

⁸ <https://kaleela.com>

يُثْرَبِي بِعَزْمِكُمْ! - U sizning izzat-hurmat va sharafingizda ulg'aysin.

4. Ramazon hayiti — islom madaniyatidagi eng muhim bayramlardan biri bo'lib, muborak Ramazon oyidan keyin nishonlanadi. Ushbu bayram davomida musulmonlar bir-birlarini tabriqlab, o'zaro ezgu tilaklar, baraka va yaxshiliklar tilaydilar. Bu jarayon jamiyatda mehr-oqibat va birlik tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qiladi.

عيد فطر مبارك! - Ramazon hayitingiz muborak bo'lsin!

عيد مبارك وسعيد لكل أحبتي! - Barcha azizlarimga muborak va quvonchli hayit tilayman!

كل عام وأنتم بخير بمناسبة عيد الفطر! - Ramazon hayiti munosabati bilan har doim yaxshilikda bo'ling!

تقبل الله منا ومنكم صالح الأعمال وجعل عيدكم مباركاً! - Alloh bizdan ham, sizdan ham yaxshi amallarni qabul qilsin va hayitingizni muborak aylasin!

5. Yangi yil boshlanishi — insonlar o'rtasida tabrik va ezgu tilaklar almashish uchun muhim ijtimoiy-madaniy imkoniyat hisoblanadi. Ushbu davr yangi maqsadlar belgilash, o'tgan yil natijalarini sarhisob qilish hamda kelajak uchun ijobiy umidlar bildirish bilan xarakterlanadi.

عام جديد سعيد! - Yangi yil muborak bo'lsin!

سنة جديدة مليئة بالأمل والتجدد! - Yangi yil umid va yangilanishlarga boy bo'lsin!

كل عام وأنتم أقرب للأهداف والأحلام! - Har yili orzu va maqsadlaringizga yanada yaqin bo'ling!

أتمنى لك عاماً مليئاً بالبهجة والنجاح! - Sizga quvonch va muvaffaqiyatlarga boy yil tilayman!⁹

Arab tilida tabriqlash jarayoni faqat tabrik so'zlari bilan cheklanmaydi, balki ularga munosib javob qaytarish ham muhimdir. Eng keng tarqalgan javob iborasi:

الله يبارك فيك! - Alloh sizga baraka bersin!

Bu javob minnatdorlikni ifodalab, tabrikni qaytadan duoga aylantiradi. Arab madaniyatida tabriqlash oddiy nutqiy akt emas, balki umumiy quvonchni ifodalovchi ijtimoiy va ma'naviy jarayon hisoblanadi. Insonlarning yutuqlarini birgalikda nishonlash jamoaviy birdamlikni mustahkamlaydi hamda o'zaro qo'llab-quvvatlash qadriyatini aks ettiradi. Shu sababli tabrik va duolar almashinuvi arab jamiyatida muhim kommunikativ va madaniy ritual(odat) sifatida qaraladi.

Arab tilida tabrik nutqiy etiketlaridan foydalanish oddiy so'z birikmalaridan iborat emas, balki bu holat madaniy meros va an'analarga bo'lgan faxrning ifodasidir. Arab tilidagi tabriklar muhim marosim va tadbirlarga ma'naviy chuqurlik hamda o'ziga xos asliylik bag'ishlaydi, shuningdek, muloqot mazmunini inson qalbiga yanada yaqinlashtiradi. Bunday tabriklar orqali insonlar o'z yaqinlariga nisbatan e'tibor va hurmatini ifoda etadi hamda bu jarayon milliy va madaniy o'zlikni aks ettiruvchi kommunikativ vosita sifatida xizmat qiladi. Shu tariqa, arab tilidagi tabriklar nafaqat ijtimoiy muloqot elementi, balki madaniy identitetni saqlash va avlodan-avlodga yetkazishda muhim lingvomadaniy omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Вдовина Е.В. Поздравление и пожелание в речевом этикете: концептуальный и коммуникативный анализ. Диссер. ...канд. филол. наук. Москва, 2007.46с

⁹ <https://wedding.planning.how>

2. Y. Al-Shboul, I.F. Huwari. Congratulation strategies of Jordanian EFL postgraduate students. Indonesian J. Appl. Ling., 6 (1) (2016), pp. 79-87
3. Ka'b bin Malik bin Al-Yaqin bin Ka'b Al-Ansari witnessed Al-Aqaba and left behind from Tabuk. For more, see Ibn Hajar Al-Asqalani: Abu Al-Fadl Ahmed bin Ali Muhammad bin Ahmed bin Hajarat 852 AH, the injury distinguishes the companions, edited by Adel Ahmed Abd Al-Mawjud and Ali Muhammad Moawad, Dar Al-Kutub Al-Ilmiya, Beirut, 1415 AD C 5 / p. 610
4. Al-Baydhani: Sadiq Muhammad Salih, Rulings of Congratulation in Islam, a Modern Social Jurisprudential Study, Ph.D. Thesis, D-year, p. 40 0(6) Al-Baydhani: Ibid., p. 50
5. <https://doi.org/10.17509/ijal.v6i1.2664>
6. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2215039021000035#bib7>
7. dspace.hebron.edu
8. <https://wedding.planning.how>
9. <https://kaleela.com>

